JIZZAX VILOYATI ARNASOY TUMANI HOKIMI QARORI

2024 - yil 20 - may 127-3-43-Q/24 Arnasoy tuman hokimligi

Tumanda 2024-yilda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rigini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga (keyingi o‘rinlarda-Nizom) muvofiq transport vositalarining 2024-yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil qilish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Arnasoy tuman ichki ishlar bo’limining 2024-yil 9-fevraldagi № 32/262-sonli xati ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hududidagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalari majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

3. Tuman hududida xalq xo‘jaligida foydalanilayotgan barcha turdagi transport vositalarini, yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan yengil avtomobillar, motosikllar va tirkamalarni hamda fuqarolarga tegishli bo‘lgan yuk transport vositalarini 2024-yilda texnik ko‘rikdan o‘tkazish komissiyasi tarkibi 1-ilovaga,

tuman hududidagi xalq xo‘jaligida foydalanadigan barcha transport vositalarini, tirkama va yarim tirkamalarni, yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan yengil avtomashinalar, motosikllarni hamda fuqarolarga tegishli yuk transport vositalarini 2024-yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin:

- tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar va o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari – bir yilda ikki marta;

- ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) - ikki yilda bir marta;

- ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) - bir yilda bir marta;

- tirkamalar texnik ko‘rikka transport vositasi - shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

- navbatdagi texnik ko‘rikdan o‘tkazishning ilgari o‘rnatilgan muddatlaridan qat’iy nazar, ularni Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati (keyingi o‘rinlarda - DYHXX) organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) vaqtida (birinchi marta ro‘yxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan mustasno).

5. Mazkur qarorning 3-bandi ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

-birinchi marta – 1-mart – 30-iyunda;

-ikkinchi marta – 1-sentabr – 31-oktabrda o‘tkaziladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko‘rigi 1-yanvar – 31-dekabrda o‘tkaziladi.

6. Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tuman komissiyasi rahbariga - transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazishda:

-transport vositasini ro‘yhatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnomada (texnik pasportda, texnik talonda) ko‘rsatilgan ma’lumotlarga transport vositasi turi, markasi, modeli, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqami belgilari, shassi (rama), kuzov va dvigatelning identifikatsiyalash raqamlarining muvofiqligi;

-transport vositasining texnik holati va jihozlari texnik reglamentlar, standartlar talablariga, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari va normalariga muvofiqligi;

-mahsus va tezkor xizmatlarning transport vositalarida maxsus rangli va ovozli signallar qurilmalarining mavjudligi, sozligi va qonuniyligi, shuningdek, transport vositasining rang-grafik bo‘yash sxemalarining texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga muvofiqligi;

-gaz yonilg‘isida ishlash uchun qayta jihozlangan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazishda gaz ballonlarining foydalanish muddati, ishlab chiqarilgan yili, zavod raqami, gaz ballonlarini sinovdan o‘tkazish muddatlari, gaz balloni anjomlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirilishi ta’minlansin.

Bunda, transport vositalarining majburiy texnik ko‘rigi DYHXX organlari hamda tadbirkorlik sub’ektlari - yuridik shaxslar tomonidan Nizomga muvofiq o‘tkaziladi hamda tegishli yig‘im undiriladi.

Transport vositalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning texnika bazalari, shuningdek, xususiy texnik xizmat ko‘rsatish stansiyalari shartnoma asosida jalb etilishi mumkin.

Jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan M1 toifadagi transport vositalari faqat tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan texnik ko‘rikdan o‘tkaziladi.

7. Tumandagi barcha transport vositalari egalari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarga texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali asosida transport vositalarini texnik jihatdan sozligini o‘z vaqtida texnik ko‘rikdan o‘tkazish majburiyati yuklatilsin.

8. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 125-sonli qarorining 3-bandiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati harbiy bo‘linmalarining transport vositalari mazkur idoralar tomonidan

belgilangan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi inobatga olinsin.

9. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan Tuman hokimining 2023-yil 22-fevraldagi “Tumanda 2023-yilda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi 29-3-43-Q/23-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (R.Ummatqulov) va IIB Yo‘l xarakati xavfsizligi guruhi (F.Mirzabekov)larga mazkur qarorning ijrosi natijalari bo‘yicha 2024-yil 10-noyabrga qadar tuman hokimligiga axborot taqdim etish vazifasi topshirilsin.

11. Tuman hokimligi Axborot xizmati rahbari R.Nurmamatov va “Arnasoy tongi” gazetasi (X.Mizaev)larga tuman hududida mavjud transport vositalarining yillik majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tadbirlarini ommaviy axborot vositalari va tuman gazetasida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

12. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

13.Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari F.Adilov zimmasiga, ijrosini tashkil etish tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i R.Ummatqulov zimmasiga yuklatilsin.

Arnasoy tuman hokimi **O.Musanov**

Arnasoy tuman hokimining
2024-yil 20-maydagi
127-3-43-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Tuman hududida xalq xo‘jaligida foydalanilayotgan barcha turdagi transport vositalarini, yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan yengil avtomobillar, motosikllar va tirkamalarni hamda fuqarolarga tegishli bo‘lgan yuk transport vositalarini 2024-yilda texnik ko‘rikdan o‘tkazish komissiyasi

T A R K I B I:

1. F.Mirzabekov -tuman IIB YHXG katta inspektori, komissiya raisi

2. Lavozimiga ko’ra -harakat xavfsizligi muhandisi, komissiya raisi o‘rinbosari

3. F.To‘xtasinov - tuman mudofa ishlari bo‘limi boshlig‘i

4.G‘.Xolmamatov - tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasining rahbari

Izoh: Komissiya a’zolari texnikalarni ko‘rikdan o‘tkazish davomida ko‘rik tugagunga qadar ko‘rikda qatnashishlari shart.

Arnasoy tuman hokimining
2024-yil 20-maydagi
127-3-43-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Tuman hududidagi xalq xo‘jaligida foydalanadigan barcha transport vositalarini, tirkama va yarim tirkamalarni, yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan yengil avtomashinalar, motosikllarni hamda fuqarolarga tegishli yuk transport vositalarini 2024 yilda texnik ko‘rikdan o‘tkazish

J A D V A L I

t/r	Tashkilotlar nomi	Texnik ko‘rikdan o‘tkaziladigan kun vaqti	Ko‘rikga taqdim etiladigan transportlar soni	Texnik ko‘rik o‘tkaziladigan joy va bajaruvchi xodimlar	Ma’sul xodimlar
1	A Latipov M.Ch.J	01.01-31.12 2023	12	TIIB YHXG	Rahbari
2	Arnasoy tuman TYXTFPK	21.03.2023	5	TIIB YHXG	Rahbari
3	Arnasoy tuman SEO va JSX	22.03. 2023	2	TIIB YHXG	Rahbari
4	Arnasoy tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	23..03. 2023	5	TIIB YHXG	Rahbari
5	Sangzor f/x	23.03. 2023	10	TIIB YHXG	Rahbari
6	Arnasoy tuman hokimligi	25.03. 2023	10	TIIB YHXG	Rahbari
7	Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi direksiyasi	26..03. 2023	3	TIIB YHXG	Rahbari
8	“OATB Agrobank Arnasoy filiali	27.03. 2023	1	TIIB YHXG	Rahbari
9	Arnasoy tuman Bandlikka ko‘maklashish markazi	29.03. 2023	1	TIIB YHXG	Rahbari
10	Arnasoy tuman "Sirdaryo-Zarafshon irrigatsiyasi"	30.03. 2023	1	TIIB YHXG	Rahbari
11	Arnasoy tuman “Moliya bo‘limi”	01.04. 2023	1	TIIB YHXG	Rahbari
12	ChP “Anvar-Xamkor-Biznes”	02.04. 2023	2	TIIB YHXG	Rahbari
13	“DT Xalq bank Arnasoy filiali”	03.04. 2023	2	TIIB YHXG	Rahbari
14	“Arnasoy tuman BO‘SM”	04.04. 2023	1	TIIB YHXG	Rahbari
15	“Arnasoy tuman DSI”	05.04. 2023	1	TIIB YHXG	Rahbari
16	Arnasoy tuman Xalq ta’limi bo‘limi	06.04. 2023	2	TIIB YHXG	Rahbari
17	“OOO “Arnasoy Gold Tex””	07.04. 2023	7	TIIB YHXG	Rahbari
18	“OOO “Arnasoy tomorqa agroservis””	08.04. 2023	1	TIIB YHXG	Rahbari
19	Tumandagi xususiy korxonalar	12.04. 2023	10	TIIB YHXG	Rahbari
20	Tuman M.Ch.J lari	13.04. 2023	41	TIIB YHXG	Rahbari
21	Fermer xo‘jaliklar	20.04. 2023	48	TIIB YHXG	Rahbari
	JAMI		**166**		

Xo‘jalik, tashkilot, korxona va fermer xo‘jaliklarining rahbarlari avtotransport vositalarining ko‘rigi boshlangunga qadar tuman ichki ishlar bo‘limining yo‘l harakati xavfsizlik guruhi kartotekasi hisobida turuvchi avtotransport vositalari haqida ma’lumotlarni topshirishi shart. Muddati o‘tib yaroqsiz bo‘lib qolgan transport vositalari va ularning extiyot qismlari to‘g‘risida ma’lumotnoma berilsin va nazorat o‘tkazilsin..

Yuridik shaxslarni transport vositalarini va fuqarolarning yuk trasport vositalarini texnik ko‘rigi har kuni soat 10-00 dan, yakshanba kunlari esa soat 13-00 gacha tuman IIB YHXGda o‘tkazilsin.